O'ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKYENT AXBOROT TYEXNOLOGIYALAR UNIVYERSITYETI

«Matyematik dasturlash va optimallash usullari»
o'quv qo'llanma

Toshkyent-2008

Annotaciya

O'quv qo'llanma matyemaik dasturlash va optimallash usulari faniga bag'ishlangan bo'lib, chiziqli va chiziqsiz dasturlash masalalarini yechish va uni yechishda kompьyutyer dasturiy pakyetlaridan qanday foydalanish yo'llari byerilgan. O'quv qo'llanma oliy tyexnika o'quv yurtlari talabalari, o'qituvchilari va kursni mustaqil o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: f.m.f.d., profyessor Nazirov SH.
f.m.f.n., docyent Nye'matov A.

Taqrizchilar: t.f.d. Mamatov A.Z.
f.-m.f.n. Kabulov R.V.

M U N D A R I J A

K I R I SH

Kompьyutyerda turli hisoblash dastur pakyetlari mavjud bo'lib, ular yordamida har xil muxandislik va iqtisodiyot masalalarini yechish imkoniyatlari mavjud.

Ma'lumki, iqtisodiyot masalalarini matyematik modyellashtirish va yechishda kompьyutyer dasturlaridan foydalanish amaliyotda muhim rolь o'ynamoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchilardan kompьyutyer amaliy dastur ta'minotlaridan foydalanishda yuqori darajada malaka talab etadi.

Matyematik dasturlash matyematikaning ko'p variantli yechimga ega bo'lgan masalalarinida eng yaxshi, maqsadga muvofiq, ya'ni optimal yechimini topishga yordam byeruvchi yo'nalishidir. Matyematik dasturlash chiziqli dasturlash, chiziqli bo'lmagan dasturlash va dinamik dasturlash dyeb ataluvchi qismlarni o'z ichiga oladi. "Dasturlash" dyeganda yechimlarni kyetma- kyet hosil qilish jarayoni tushuniladi. Bu yechim shunday jarayonki, unda eng avval boshlang'ich yechim topiladi va kyeyin bu yechim qadamba-qadam yaxshilanib boriladi. Bu jarayon eng yaxshi dastur topulguncha davom ettiriladi va har bir qadamda maxsus ko'rsatgichlar yordamida qanday ish tutish, hamda optimal yechimga qanday yaqinlashish kyerakligi ko'rsatilib boriladi.

CHiziqli va chiziqsiz dasturlash masalasini to'liq tushunish uchun oldin chiziqli funkciya, chiziqli tyenglamalar va tyengsiziklar, ularning yechimlari haqida to'liq tassavurlarga ega bo'lish lozim.

Muxandislik va iqtisodiy masalalarni matyematik modyellashtirish va ularni yechish bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazishda kompьyutyerdan foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini yanada mustahkamlashini va mustaqil shug'ullanishini ta'minlaydi.

Qo'llanma chiziqli va chiziqsiz dasturlash masalasini yechishda yakka tartibdagi amaliy mashg'ulotlarini qanday bajarish tartibi va uni yechish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Qo'llanmada amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar to'plamlari matyeriallari kyeltirilgan.

1-qism

1.OPTIMALLASH MASALASI VA UNING MATYEMATIK MODYELI

Optimallash nazariyasi va matyematik dasturlash inson faoliyatining turli sohalarida kyeng qo'llaniladigan fanlardan biridir. Bu sohadagi muhim muvaffaqiyatlarga katta tyexnik tizimlarni loyihalash va analiz qilish natijasida erishilgan.

Inson oldiga qo'yiladigan barcha masalalarni yechishda yaxshi yoki yomon dyegan yechimni qabul qilishi mumkin. YEchim qabul qilish jarayoni formallashgan (formalizovan) va formallashmagan holda bo'lishi mumkin.

Formallashmagan yechim qabul qilish -bu agar aytish lozim bo'lsa ijod, san'atdir. Formallashmagan yechimni qabul qilish uchun insondan hyech narsa kyerak bo'lmaydi. Masalan, inson o'tirdi, o'yladi, yechim qabul qildi. Haqiqatdan ham bu holda yechimning to'g'riligiga hyech qanday kafolat (garantiya) yo'q. Inson ko'p hollarda hyech qanday asossiz o'zi o'ylagan holda, ayrim hollarda esa tajribasiga ishongan holda yechimlarni qabul qiladi.

Formallashgan yechimga kyelsak, u aniq tavsiyaga asoslanib qabul qilinadi. Formallashgan yechim qabul qilish ikkita usulga asoslanadi:

-mantiqiy modyellash;

-optimallash.

Mantiqiy modyellashda yuqori bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tomnidan usul tanlanib, kim tamonidan yechim qabul qilish kyerakligi aniqlanib, tanlangan usul yordamida biror bir holat yoki boshqa holatda nima qilish kyerakliligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi funkciyalar xizmat qiladi: VA (I), YOKI (ILI), AGAR (YESLI), YO'Q (NYE). Komьpyutyerda mantiqiy modyellashni amalga oshirish uchun maxsus Prolog (mantiqiy dasturlash) tili ishlab chiqilgan.

YEchim qabul qilishning **optimallash** usuli quyidagilarga asoslanadi:

-matyematik modyellash;

-kompьyutyerda masalani yechish;

-boshlang'ich ma'lumotlar.

Matyematik modyellashning ikkita imkoniyati mavjud:

-qo'yilgan savolga tyez javob topish;

-kyeng tajriba o'tkazish imkoniyati.

YEchim qabul qilish algoritmi ancha murakkab bo'lib, unda kompьyutyerni qo'llamasdan turib amaliy jihatdan bajarish mumkin emas. Kompьyutyerda optimal yechimni izlash algoritmi uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot va boshlang'ich ma'lumotlarsiz izlanayotgan natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday dasturiy ta'minot Excel vositasida "Poisk ryeshyeniya" syervis xizmatida mavjud. Bunda boshlang'ich ma'lumotlarning yetarlicha aniqligi katta ahamiyatga ega.

Optimal yechimni qabul qilishning asosiy bosqichlari

Optimal yechimni qabul qilishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Masalani tanlash. Bunda masala qanday talablarni qanoatlantirishi kyerakligi aniqlashtiriladi. Masalani tanlash optimal yechimni qabul qilishda asosiy rol o'ynaydi. CHunki masala nato'g'ri tanlansa yechimni qabul qilishda ko'p vaqt talab qilinadi va masalani yechishda tanlangan optimal usul kyerakli natijani byermaydi.

2.Masalani qo'yish. Bunda masalaning matyematik modyeli va uning elyemyentlari aniqlanadi.

3.Masala matyematik modyelini tuzish. Bu bosqich ham juda asosiy bo'lib, optimal yechim qabul qilishga asoslangan matyematik modyelni tuzish masalasi qaraladi.

4.Masala uchun boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish. Bu bosqichda tuzilgan matyematik modyelga mos boshlang'ich ma'lumotlar yig'iladi. Masala va uning matyematik modyelining to'g'riligini tyekshirish uchun kyerakli tyest ma'lumotlari tashkil qilinadi.

5.Masalani yechish. Bu bosqichda kyerakli usul tanlanib masala yechiladi.

6.YEchimni tahlil qilish. Bu bosqich yechim qabul qilishning asosiy instrumyenti bo'lib, olingan optimal yechim matyematik modyel asosida tahlil qilinadi.

7.Optimal yechimni qabul qilish. Optimal yechim olingan natijalarga asoslanib mutaxasis tamonidan qabul qilinadi.

8.YEchimni grafik ko'rinishda tasvirlash optimal yechimni qabul qilishda muhim faktor bo'lib, unda ma'lumotlar yaqqol tasvirlanadi.

1.1.Optimallash masalasi va uning matyematik modyelining qo'yilishi

Optimallash masalasini oddiy bir hol uchun ko'rib chiqaylik. Oddiy matyematik modyelga ega, murakkab matyematik formula ishlatilmaydigan formasini yetarlicha tavsiflash qiyin bo'lgan idishni olaylik. Bu idish kuvshin (ko'za) bo'lmasa ham, uning formasini yetarlicha tavsiflash qiyin.

Aytaylik hajmi to'g'ri burchakli paralyelopyepyed formaga ega bo'lgan bakni loyihalashtirish kyerak bo'lsin. Bunda uning hajmini hisoblash formulasi quyidagicha bo'ladi.

$$V=a\cdot b\cdot h \qquad (1)$$

bu yerda a, b, h –ning tamonlari.

Bu masalaning matyematik modyelini tuzish uchun masala qo'yilishi tavsifini byerish kyerak: hajmi V=2000 ga tyeng bo'lgan bak o'lchamini aniqlash talab etilsin va bakni tayorlash uchun kam matyerial kyetsin, uning maydoni (sirti)

$$S=2\cdot [a\cdot b+(a+b)\cdot h] \qquad (2)$$

Bunday masalaning matyematik qo'yilishi quyidagicha yoziladi.

$$F=S\rightarrow \min$$
$$V=2000 \qquad (3)$$

Bu yozuv V=2000 shart bilan S kattalikni minimallashtirish ma'nosini bildiradi. Oxirgi (3) formulani (1) va (2) larga asoslanib quyidagicha yozish mumkin.

$$F=2\cdot[a\cdot b+(a+b)\cdot h]\to min$$
$$a\cdot b\cdot h=2000$$

Bu bog'lanishlarga yana ko'proq kompьyutyer uchun kyerak bo'lgan shartni qo'shamiz. Bu shart to'rtburchak tomonlari faqat musbat qiymatga ega bo'lishligi shartidir, ya'ni a, b, h>0.

U holda masalaning optimal yechimini izlashning quyidagi matyematik modyeliga ega bo'lamiz:

$$\begin{array}{ll} MF\ (CF) & F=2\cdot[a\cdot b+(a+b)\cdot h]\to min \\ CHG(OGR) & a\cdot b\cdot h=2000 \\ CHSH\ (GRU) & a,\ b,\ h>0 \end{array} \qquad (4)$$

Bu modyel uchta asosiy tashkil etuvchilardan iborat:

-maqsad funkciyasi (MF);

-chyegaralash (CHG);

-chyegaraviy shart (CHSH).

Endi optimallash masalasining matyematik modyelini umumiy holda ko'rib chiqaylik. Buning uchun yana yuqoridagi kyeltirilgan misolni qaraymz. Unda quyidagi byelgilashlarni kiritamiz $x_1=a$, $x_2=b$, $x_3=h$. U holda (4) quyidagicha yoziladi.

$$\begin{array}{l} F=2\cdot[x_1\cdot x_2+(x_1+x_2)\cdot x_3]\to min \\ x_1\cdot x_2\cdot x_3=2000 \\ x_1,\ x_2,\ x_3>0 \end{array} \qquad (5)$$

YOki buni umumlashtirgan holda quyidagicha yozish mumkin.

$$\begin{array}{l} F=f(x_1,x_2,x_3)\to min \\ g(x_1,x_2,x_3)=B \\ x_1,\ x_2,\ x_3>0 \end{array} \qquad (6$$

Bu (6) modyelni yanada umumlashtirib kompakt holda yozadigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishni oladi.

$$\begin{array}{l} F=f(x_j)\to min(max,Const) \\ g_i(x_j)\le B_i \\ d_j\le x_j\le D_j\ \ i=1,2,\ldots,m;\ \ j=1,2,\ldots,n \end{array} \qquad (7)$$

(7) modyel optimallash masalasining umumlashgan matyematik formasining yozilishidir.

Bu modyel formulalari ma'nolarini byeramiz:

1) maqsad funkciyasi (MF) –optimallash krityeriyasi bo'lib masala yechimining optimalligini, ya'ni yaxshiligi ma'nosini ko'rsatadi. Bunda maqsad funkciyasi 3 turga mo'ljallangan bo'lishi mumkin:

- maksimallashtirish;
- minimallashtirish;
- byerilgan qiymatga mo'ljallangan.

2) chyegaralash (CHG) -o'zgaruvchilar o'rtasidaga bog'lanishlarni o'rnatadi. Ular bir taraflama yoki ikki taraflama bo'lishi mumkin, masalan:

- $g_i(x_j) \le B_i$ bir taraflama byerilish;
- $A_i \le g_i(x_j) \le B_i$ ikki taraflama byerilish.

Excel yordamida optimallash masalasini yechishda ikki taraflama chyegaralash ikkita bir taraflama chyegaralashga ajratilib byeriladi, ya'ni

$g_i(x_j) \ge A_i$

$g_i(x_j) \le B_i$

3) chyegaraviy shart (CHSH) -qiymati izlanayotgan o'zgaruvchilarga chyegaralashlarni qo'yadi.

Masalaning barcha chyegaralanishlar va chyegaraviy shartlarni qanoat-lantiruvchi yechimlariga -**mumkin bo'lgan yechimlar to'plami** dyeyiladi.

Optimallash masalasining asosiy xaraktyeristikalaridan biri bu uning o'lchamidir. Uning o'lchami n -o'zgaruvchilar soni va m -chyegaralashlar soni bilan aniqlanadi. Bunda uchta hol bo'lishi mumkin: $n<m$, $n=m$, $n>m$.

1. $n<m$ holni qaraymiz.

Misol,

$x_1+2=5$

$x_1-8=15$

sistyemani qaraylik. Bu yerda $n=1$, $m=2$. Ko'rinib turibdiki masala yechimi mavjud emas. CHunki birinchi tyenglamada x_1 qiymati 3 ikkinchi tyenlamada x_1 qiymati 7.

2. $n=m$ holni qaraymiz.

Misol,

$x_1+ x_2=5$

$x_1 - x_2=1$

Bu holda $n=m=2$. Bunday n va m bog'lanish tyenglamalar sistyemasini yechishning zarur shartidir. Bu holda yechim mavjud. Lyekin shunday holatlar bo'lishi mumkinki $n=m$ bo'lganda ham yagona yechim mavjud bo'lmaydi, masalan

$x_1+ x_2=5$

$2x_1+2x_2=10$

bu sistyema yagona yechimga ega emas, ya'ni u chiziqli bog'langandir.

3. $n>m$ holni qaraymiz.

Misol,

$x_1+ x_2=5$

bu yerda $n=2$, $m=1$. Bu holda x_1 va x_2 tyenglamani qanoatlantiradigan chyeksiz ko'p qiymatni qabul qilishi mumkin.

1.2.Optimallash masalasi matyematik modyelining klassifikaciyasi

Optimallash masalasining matyematik modyel elyemyentlari bo'lgan izlanayotgan o'zgaruvchilar, bog'lanishlar va boshlang'ich ma'lumotlar birikmasi optimallash masalasining har xil sinflarini tashkil qiladi va ularni yechishda turli usullar talab etiladi. Matyematik modyel elyemyentlar turlariga qarab optimallash masalasini quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- CHiziqli dasturlash. Bunda bog'lanishlar chiziqli, izlanayotgan o'zgaruvchilar uzluksiz va boshlang'ich ma'lumotlar aniq qiymatlar bo'ladi.
- CHiziqsiz dasturlash. Bunda bog'lanishlar chiziqsiz, izlanayotgan o'zgaruvchilar uzluksiz yoki butun sonli bo'lib, boshlang'ich ma'lumotlar ham aniq qiymatlar bo'ladi.
- Butun sonli dasturlash. Bunda bog'lanishlar chiziqli, izlanayotgan o'zgaruvchilar butun sonli va boshlang'ich ma'lumotlar aniq qiymatlar bo'ladi.
- Dinamik dasturlash. Bunda bog'lanishlar chiziqli yoki chiziqsiz bo'lib, ko'proq vaqtga bog'liq masalalar qaraladi va boshqa.

Boshlang'ich ma'lumotlar (isxodnыye dannыye) matyematik modyel uchun quyidagilar bo'ladi:

- Maqsad funkciyasi $F(x_j)$;
- CHyegaralashning chap tamoni $g_i(x_j)$ va o'ng tamoni b_j.

Izlanadigan o'zgaruvchilar uzliksiz va diskryet bo'lishi mumkin. Uzliksiz dyeb shunday o'zgaruvchilarga (kattaliklarga) aytiladiki, u byerilgan chyegaraviy shartda istalgan qiymat qabul qilishi mumkin. Diskryet dyeb shunday o'zgaruvchilarga (kattaliklarga) aytiladiki, u faqat byerilgan qiymatni qabul qiladi. Butun sonli dyeb shunday diskryet o'zgaruvchilarga aytiladiki, u faqat butun qiymat qabul qiladi.

O'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlar chiziqli va chiziqsiz bo'lishi mumkin. Bog'lanish chiziqli dyeyiladi, agarda o'zgaruvchi birinchi darajali bo'lib, u bilan faqat ayirish yoki qo'shish bajarilsa. Aks holda chiziqsiz dyeyiladi.

Krityeriyalari (alomat myezonlari) soni bo'yicha matyematik modyellar ko'p krityeriyali va bir krityeriyalilarga bo'linadi. Ko'p krityeriyali matyematik modnllar ikkita va undan ortiq krityeriyani o'z ichiga oladi.

Noaniq faktorlarni hisobga olgan xolda matyematik modyellarni dyetyerminallashgan, stoxostik va noaniq elyemyentli modyellarga ajrtish mumkin.

Staxostik modyellarda noaniq faktorlar tasodifiy miqdorlar bo'lib, ular uchun taqsimot funkciyasi va turli statistik xaraktyeristikalar (matyematik kutilma, dispyersiya, o'rtacha kvadratik chyetlashish va h.k) ma'lum. Stoxostik modyellar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Stoxostik dasturlash modyellari, bunda yoki maqsad funkciyasi yoki chyegaraviy shartlarda tasodifiy miqdorlar qatnashadi;

Tasodifiy jarayonlar nazariyasi modyellari, bunda vaqtning xar onida xolatlari tasodifiy miqdorlardan iborat bo'ladigan jarayonlar o'rganiladi.

Ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi modyellari, bunda xizmat ko'rsatish talablarini aniqlashning ko'pkanalli tizimlari o'rganiladi. Bulardan tashqari saxostik modyellarga foydalilik nazariyasi, qidiruv va yechim qabul qilish modyellarini kiritish mumkin.

Statistik ma’lumotlarni yig’ish imkoniyati bo’lmaganligi va faktorlar qiymatlari aniqlanmaganligi uchun faktorlarga bog’liq bo’lgan xolatlarni modyellashtirishda *noaniq elyemyentli modyellar* ishlatiladi.

O’yinlar nazariyasi modyelida masala har xil maqsadli bir nyecha o’yinchilar qatnashuvchi o’yin ko’rinishida ifodalanadi.

Imitacion modyelь - matyematik modyel asosida kompьyutyerda hisoblash tajribalarini o’tkazib ryeal ob’yekt, jarayon yoki tizim holatini taqlid (imitaciya) qilishdir. Imitacion modyel yordamida ob’yekt, jarayon yoki tizimga tasoddifiy ta’sir ryeakciyasini hisoblash imkoniyati mavjuddir.

Dityerminallashgan modyellarda naoniq faktorlar hisobga olinmaydi. Bu modyellarning uncha murakkab bo’lmaganligi sabab ko’pgina amaliy masalalar, shu jumladan iqtisodiy masalalar shu modyellarda ifodalanadi. CHyeklanishlar vaa maqsad funkciyasi ko’rinishiga qarab dityerminallashgan modyellar chiziqli, chiziqsiz, dinamik va grafiklarga bo’linadi.

CHiziqli modyellarda chyeklanishlar vaa maqsad funkciyasi boshqaruvchi o’zgaruvchilar bo’yicha chiziqli bo’ladi. Matyematik modyellashtirishda chiziqli modyellarni qurish va ularni hisoblash yaxshi rivojlangandir.

CHiziqsiz modyel – bu shunday modyelki unda boshqarish o’zgaruvchilari bo’yicha yo maqsad funkciyasi yoki chyeklanishlar chiziqsiz bo’ladi. CHiziqsiz modyellar uchun yagona hisoblash usuli mavjud emas. Bunda usullar chiziqsiz funkciyalar ko’rinishi va bog’lanishiga qarab farqlanadi.

Dinamik modyellarning chiziqli va chiziqsiz statistik modyellardan farqi shundaki modyelda vaqt faktori hisobga olinadi. Dinamik modyellarda optimallik krityeriyasi eng umumiy ko’rinishda bo’lib, uning uchun aniq ma’lum xossalar bajariladi. Dinamik modyellarni hisoblash jarayoni juda murakkab, unda har bir aniq masala uchun maxsus yechish algoritmlarini ishlab chiqish zarur bo’ladi.

Grafik modyellar masalalarni grafik struktura ko’rinishda tasvirlash uchun ishlatiladi.



1-rasm

Mavzu bo’yicha savollar

1.YEchim qabul qilish jarayonining qanday holatlari bo’lishi mumkin?
2.Mantiqiy modyellash dyeganda nimani tushunasiz?
3.YEchim qabul qilishda optimallash usuli nimalarga asoslanadi?
4.Msalaning mumkin bo’lgan yechimlari dyeganda nimani tushunasiz?
5.Optimallash masalasini qanday sinflarga ajratish mumkin?
6.Maqsad funkciyasi nima?
7.O’zgaruvchilar orasidagi bog’lanishlar qanday bo’lishi mumkin?
8.Optimal yechimni qabul qilishning asosiy bosqichlarini aytib byering.

2.CHIZIQLI VA CHIZIQSIZ DASTURLASHLARNING MATYEMATIK MODYELLARI

2.1.CHiziqli dasturlash masalasining matyematik modyeli

CHiziqli dasturlash matyematik dasturlashning asosiy qismlaridan biri bo'lib, ko'p o'zgaruvchi funkciyalarning ekstryemumlarini topishni o'rganadi va iqtisodiy-matyematik modyellarni tyekshirishda matyematik apparat bo'lib hisoblanadi.

Matyematik modyel qo'yidagicha talqin qilanadi: Tyenglamalar yoki tyengsizliklar sistyemasini qanoatlantiruvchi o'zgaruvchilarining shunday manfiy bo'lmagan qiymatlarini topish talab qilinadiki, bunda o'zgaruvchilarning chiziqli funkciyasi bo'lgan miqdor (maqsad funkciyasi) eng katta (eng kichik) qiymatga ega bo'lsin (erishsin).

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + ... + a_{1n}x_n \le b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + ... + a_{2n}x_n \le b_2 \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + ... + a_{mn}x_n \le b_m \end{cases}$$

$$x_j \ge 0 \qquad (i = \overline{1,m}) \quad (j = \overline{1,n})$$

$$Z = c_1x_1 + c_2x_2 + ... + c_nx_n \to \max(\min)$$

Ushbu matyematik modyelni vyektor ko'rinishida quyidagicha yozish mumkin

$$\sum_{j=1}^{n} a_{ij}x_j \le b_i, \quad (i = \overline{1,m})$$

$$x_j \ge 0 \qquad (j = \overline{1,n}) \qquad (3.1)$$

$$Z = \sum_{j=1}^{n} c_i x_i \to \max(\min)$$

(3.1) formulaning birinchisi iqtisodiy ma'noda izlananayotgan miqdorlarga qo'yiladigan chyeklanishlarni ifodalaydi, ular ryesurslar miqdori, ma'lum talablarni qondirish zarurati, tyexnologiya sharoiti va boshqa iqtisodiy hamda tyexnikaviy faktorlardan kyelib chiqadi. Ikkinchi shart - o'zgaruvchilarning, yaьni izlanayotgan miqdorlarning manfiy bo'lmaslik sharti bo'lib hisoblanadi. Uchinchisi maqsad funkciyasi dyeyilib, izlanayotgan miqdorning biror bog'lanishini ifodalaydi (ishlab chiqarish maxsulotlarini sotishdan kyeladigan foyda, ma'lum miqdordagi ishni bajarishga sarf bo'lgan xarajat va h.k.).

Agar maqsad funkciyasi iqtisodiy faktorlarni ifodalasa, u holda funkciyaning maksimum qiymati izlanadi, aks holda minimumni izlash kyerak bo'ladi.

Nomalumlarning son qiymatlari tuplami masalaning plani dyeyiladi.

CHyeklanishlar sistyemasini qanoatlantiruvchi xar qanday plan (yechim) mumkin bo'lgan plan (yechim) dyeyiladi.

Maqsad funkciyasiga maksimal (yoki minimal) qiymat byeruvchi mumkin bo'lgan plan (yechim) masalaning optimal plani (yechimi) dyeyiladi.

Maqsad funkciyasining chyeklanishlarini qanoatlantiradigan maksimum yoki minimumini topishning (3.1) masalasi ko'rinishi standart chiziqli dasturlash masalasi dyeyiladi.

Tyengsizliklar sistyemasi ko'rinishida byerilgan chyeklanish shartlarini qo'shimcha o'zgaruvchilar, ya'ni x_{n+i} kiritib tyenglamalar sistyemasini quyidagicha yozish mumkin.

$$\sum_{j=1}^{n} a_{ij}x_j + x_{n+i} = b_i, \quad (i = \overline{1,m})$$

$$x_j \geq 0 \ , \quad x_{n+i} \geq 0 \quad (j = \overline{1,n})$$

$$Z = \sum_{j=1}^{n} c_i x_i \to \max(\min)$$

U holda bunday masalaga kanonik ko'rinishda byerilgan chiziqli dasturlash masalasi dyeyiladi.

CHiziqli modyelga kyeltiriladigan quyidagi iqtisodiy masalani ko'rib chiqaylik.

Misol

Korxona uch turdagi mahsulotni ishlab chiqaradi, uni buyurtmachilarga yetkazadi va bozorga sotuvga chiqaradi.

Bozordagi talab sharti birinchi turdagi mahsulot sonini 2000, ikkinchinikini 3000, uchinchiniki**ni** 5000 tadan ortishiga yo'l qo'yolmaydi**.**

Mahsulotni ishlab chiqarishda 4 turdagi ryesurs qo'llaniladi. Bitta mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf bo'ladigan ryesurs miqdori hamda har bir turdagi mahsulotni sotishdan olinadigan foyda 2.1-jadvalda kyeltirilgan.

1) Buyurtmachilarni ta'minlash uchun;
2) Mahsulot miqdori oshib kyetmasligi uchun;
3) Maksimal foydani olish uchun ishllab chiqarish jarayonini qay tarzda tashkillashtirish kyerak?

2.1. jadval

Ryesurs turi	Mahsulot turi			Jami ryesurslar
	1	2	3	
1 2 3 4	500 1000 150 100	300 200 300 200	1000 100 200 400	25 000000 3 0000000 2 0000000 4 0000000
Foyda	20	40	50	

Matyematik modyelьni qurish.

Matyematik modyelьni qurish bosqichlarini kyetma-kyet bajaramiz.

1) Maqsad-maksimal foyda olish.
2) O'zgaruvchilar bo'lib masalaning shartida kyeltirilgan hamma sonli ma'lumotlar hizmat qiladi.
3) Bosh o'zgaruvchilar:
   x_1-birinchi turdagi mahsulotlar soni;
   x_2 - ikkinchi turdagi mahsulotlar soni;
   x_3 - uchinchi turdagi mahsulotlar soni;

4) CHyeklanishlar: buyurtmachilar ta'minlansin, ryesurslar zahirasi doirasidan chiqib kyetilmasin, bozor mahsulotga to'lib kyetmasin.

Ushbu chyeklanishlarni hisobga olgan holda masalaning mavjud yechimlar sohasini yozib olaylik:

$$\begin{cases} x_1 \geq 1000, \\ x_2 \geq 2000, \\ x_3 \geq 2500, \\ x_1 \leq 2000, \\ x_2 \leq 3000, \\ x_3 \leq 5000 \\ 500x_1 + 300x_2 + 1000x_3 \leq 25000000, \\ 100x_1 + 200x_2 + 100x_3 \leq 20000000, \\ 150x_1 + 300x_2 + 200x_3 \leq 20000000, \\ 100x_1 + 200x_2 + 400x_3 \leq 40000000. \end{cases}$$

Sistyemadagi birinchi uchta tyengsizlik buyurtmachilar talabiga to'g'ri kyeladi. 4 dan 6 gacha bo'lgan tyengsizliklar bozordagi talabni ifodalaydi. Oxirgi to'rtta tyengsizliklar ryesurs bo'yicha chyeklanishlarni ko'rsatadi.

5) Masalaning maqsad funkciyasi yoki samaradorlik myezonining ko'rinishi quyidagicha

$$P = 20x_1 + 40x_2 + 50x_3 \to \max.$$

Formulada foyda R harfi bilan byelgilangan. Uni maksimallashtirish kyerak. x_1, x_2, x_3 bilan byelgilangan har bir qo'shiluvchi byerilgan turdagi mahsulotni ishlab chiqarishdan olingan foydani anglatadi.

CHyeklanishlar hamda maqsad funkciyasi bosh o'zgaruvchilar bo'yicha chiziqli, bundan kyelib chiqadiki byerilgan modyelь chiziqlidir.

2.2 Iqtisodda chiziqli dasturlash

SHunday sodda iqtisodiy va ishlab chiqarish masalalarni kyeltiraylikki, ularning muqobil yechimi mos chiziqli matyematik modyellarni qurish va hisoblash yordamida topilsin.

2.2.1 Ishlab chiqarishni ryejalashtirish

Har xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda turli hil ryesurslar ishlatiladi. Har bir ryesursning umumiy zahirasi, har bir turdagi bitta maxsulotni tayyorlash uchun sarf bo'ladigan har bir turdagi ryesurs miqdori, har bir turdagi mahsulotni sotishdan olinadigan foyda byerilgan. Mahsulotni ishlab chiqishning shunday ryejasini tuzish kyerakki, u mahsulotni sotishda maksimal foyda byersin.

Matyematik modyelьni qurish

Matyematik modyelьni 1yuqorida bayon etilgan bosqichlar bo'yicha quramiz.

1) Maqsad- foydani maksimallashtirish.
2) Masala umumiy holda yechiladi, shuning o'zgaruvchilarni aniqlash uchun shartli byelgilash kiritamiz:

n-har xil turdagi mahsulotlar soni;

m-har xil turdagi ryesurslar soni;

b_1 -i turdagi ryesurs zahirasi, $i=\overline{1,m}$

a_{ij} -j-turdagi bitta mahsulotni ishlab chiqarish uchun kyetadigan i-turdagi ryesurslar miqdori. $i=\overline{1,m}$, $j=\overline{1,n}$

P_j -j-turdagi bitta mahsulotni sotishdan olingan foyda.

3) x_j, $j=\overline{1,n}$ bosh o'zgaruvchilar-j-turdagi mahsulotlar soni.

4) Masalaning chyeklanishlari-bu ryesurslar bo'yicha chyeklanishlar hamda bosh o'zgaruvchilarning nomanfiylik sharti.

SHu yosinda matyematik modyelьni qurish mumkin.

$$P=\sum_{j=1}^{n} p_j x_j \to \max$$

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n \le b_1; \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n \le b_2; \\ \quad \dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \dots + a_{mn}x_n \le b_m; \end{cases} \qquad x_j \ge 0, \quad j=\overline{1,n}$$

Bu qo'yilgan masalaning chiziqli matyematik modyelidir. Uni hisoblash natijasida ishlab chiqarishning muqobil ryejasini, ya'ni foyda maksimal bo'ladigan hamda ryesurslar zahirasidan oshib kyetmaydigan har bir turdagi mahsulotlar sonini aniqlashadi.

2.2.2.Minimal istye'mol oziq-ovqat korzinasini shakllantirish

Sotuvda mavjud mahsulotlar assortimyenti byerilgan. ♥ar mir mahsulot tarkibida ma'lum bir ozuqaviy moddalar (vitamin va kaloriyalar) bor. Insonga har bir turdagi moddaning zarur bo'ladigan minimumi ma'lum. Minimal narxga ega bo'lgan istye'mol oziq-ovqat korzinasini aniqlash talab etilsin.

Matyematik modyelьni qurish.

1) Maqsad- istye'mol korzinasining narxini minimallashtirish.
2) Masalaning o'zgaruvchilari

n - sotuvda mavjud bo’lgan **h**ar xil mahsulotlar soni;

m - insonga kyerak bo’ladigan har xil ozuqaviy moddalar soni;

a_{ij} - j-mahsulot tarkibidagi i-ozuqaviy modda, $i=\overline{1,m}$, $j=\overline{1,n}$

b_1 - insonga zarur bo’ladigan **i-**ozuqaviy modda miqdori **,** $i=\overline{1,m}$

s_j - birlik j-mahsulot narhi, $j=\overline{1,n}$.

3) Bosh o’zgaruvchilar x_j- bu istye’mol korzinasiga kiruvchi j-mahsulot narxi, $j=\overline{1,n}$.
4) Mavjud yechimlar sohasi barcha mahsulotlarda bo’lishi kyerak bo’lgan ozuqaviy moddalarning istye’mollik darajasi va bosh o’zgaruvchilarning nomanfiylik shartini ifodalovchi quyidagi tyengsizliklar sistyemasi bo’yicha aniqlanadi:

$$\begin{cases} a_{11}x_1+a_{12}x_2+...+a_{1n}x_n \le b_1; \\ a_{21}x_1+a_{22}x_2+...+a_{2n}x_n \le b_2; \\ .... \\ a_{m1}x_1+a_{m2}x_2+...+a_{mn}x_n \le b_m; \qquad x_j \ge 0, \quad j=\overline{1,n} \end{cases}$$

5) Muqobillik myezoni S ning ko’rinishi quyidagicha

$$C=\sum_{j=1}^{n} x_j x_j \to \max$$

Bu modyel chiziqli matyematik modyelь. Uni hisoblagandan so’ng chyeklanishlarni qanoatlantiruvchi va funkciyaning minimumini byeruvchi x_j qiymat topiladi, ya’ni minimal istye’mol oziq-ovqat korzinasining tarkibi aniqlanadi.

2.2.3.Jihozning muqobil yuklanishini topish

Korxona mavjud jihozda ishlab chiqarish buyurtmasini bajarishi shart. Jihozning har bir birligi uchun quyidagilar byerilgan: ish vaqtining fondi, har bir turdagi birlik mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi va ishlab chiqaruvchanlik, ya’ni birlik vaqt ichida ishlab chiqarish mumkin bo’lgan har bir turdagi birlik mahsulot soni. Mahsulot ishlab chiqarishni jihoz bo’yicha shunday taqsimlash kyerakki, tannarx minimal bo’lsin.

Matyematik modyelьni qurish.

1) Maqsad – tannarxni minimallashtirish.
2) O’zgaruvchilar:

m-nomyenklatura, ya’ni ishlab chiqarish buyurtmasidagi har xil turdagi mahsulotlar soni;

b_i -i-turdagi birlik mahsulot soni, $i=\overline{1,m}$;

T_j -j turdagi jihozning ishlash vaqti fondi,

a_{ij} -j-turdagi jihozning i-turdagi mahsulotni ishlab chiqarish bo’yicha mahsuldorligi, $i=\overline{1,m}$, $j=\overline{1,n}$;

c_{ij} -i turdagi birlik mahsulotni j-turdagi jihozda ishlab chiqarish tannarxi.

3) Bosh o'zgaruvchilar x_j, $i=\overline{1,m}$, $j=\overline{1,n}$-bu y' jihoz i-turdagi $i=\overline{1,m}$, $j=\overline{1,n}$ mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf qilgan vaqtdir.
4) Mavjud yechimlar sohasi vaqt bo'yicha chyeklanishlar, nomyenklatura bo'yicha chyeklanishlar hamda x_{ij} ning nomanfiylik shartlarni hisobga olgan holda topiladi.

$$\begin{cases} x_{11}+x_{21}+...+x_{m1}\le T_1; \\ x_{12}+x_{22}+...+x_{m2}\le T_2; \\ .... \\ x_{1n}+x_{2n}+...+x_{mn}\le T_n; \\ a_{11}x_{11}+a_{12}x_{12}+...+a_{1n}x_{1n}=b_1; \\ a_{21}x_{21}+a_{22}x_{22}+...+a_{2n}x_{2n}=b_2; \\ \qquad\qquad .... \\ a_{m1}x_{m1}+a_{m2}x_{m2}+...+a_{mn}x_{mn}=b_m; \quad x_{ij}\ge 0, \qquad i=\overline{1,m} \quad j=\overline{1,n} \end{cases}$$

5) Muqobillik myezoni quyidagi funkciya orqali byeriladi

$$C=\sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{n}c_{ij}x_{ij}\to \min$$

bu yerda S-jami tannarx.

Modyelьni qurgandan so'ng jihozning muqobil yuklanishi, ya'ni har bir turdagi jihozning har bir ko'rinishdagi mahsulotni ishlab chiqarishga sarf qilgan vaqti tushuniladi.

2.2.4. Matyerialni bichish

Bichish uchun bir nyecha turdagi matyerial ma'lum bir miqdorda kyelib tushadi. Bu matyerialdan har xil mahsulot tayyorlash kyerak. Matyerial har xil usulda bichilishi mumkin. Har bir tur o'zining tannarxiga ega va har bir turga mansub mahsulotning ma'lum miqdorini olishga imkon byeradi. SHunday bichish usulini topingki, uning jami tannarxi minimal bo'lsin.

Matyematik modyelьni qurish.

1) Maqsad-bichish tannarxini minimallashtirish;
2) O'zgaruvchilar:

n-bichishga kyelib tushgan har xil turdagi matyerial soni;

d_j -j-turdagi matyerial miqdori, $j=\overline{1,n}$

m- tayyorlash kyerak bo'lgan turli hil mahsulotlar soni;

b_i -i-turdagi mahsulot soni, $i=\overline{1,m}$;

l- bichishning turli xil usullari soni;

a_{ijk} -bichishning k-usulida j-tudagi birlik matyerialdan olish mumkin bo'lgan i-turdagi mahsulotlar soni, $i=\overline{1,m}$, $j=\overline{1,n}$, $k=\overline{1,l}$;

s $_{jk}$ -j-tudagi matyerialni k-usulda bichish tannarxi, $j=\overline{1,n}$, $k=\overline{1,l}$;

3) Bosh o'zgaruvchilar x_{jk}- k-usulda bichilgan j-turdagi matyerial miqdori, $j=\overline{1,n}$, $k=\overline{1,l}$;
4) Mavjud yechimlar sohasi joriy matyerialning miqdori, chiqarish bo'yicha chyeklanishlar hamda bosh o'zgaruvchilarning nomanfiylik sharti asosida aniqlanadi.

$$\begin{cases} x_{11}+x_{21}+...+x_{1l}=d_1; \\ x_{12}+x_{22}+...+x_{2l}=d_2; \\ .... \\ x_{1n}+x_{2n}+...+x_{nl}=d_n; \\ a_{111}x_{11}+a_{112}x_{12}+...+a_{1n1}x_{1n}=b_1; \\ a_{211}x_{11}+a_{22}x_{12}+...+a_{2nl}x_{nl}=b_2; \\ \qquad\qquad .... \\ a_{m11}x_{11}+a_{m12}x_{12}+...+a_{mnl}x_{nl}=b_m; \qquad x_{jk}\ge 0,\ j=\overline{1,n} \quad k=\overline{1,n} \end{cases}$$

5) Muqobillik myezoni quyidagi funkciya bilan byeriladi:

$$C=\sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{n}c_{jk}x_{j_k}\to \min$$

Modyelьni hisoblagandan so'ng har xil usulda bichilgan har bir turdagi matyerial miqdori aniqlanadi.

Tannarxni minimallashtirish myezoni o'rniga, masalada chiqindilarni minimallashtirish myezoni olinishi mumkin. Bu holatda- shartda har bir turdagi matyerialni ixtiyoriy usulda bichishda olinadigan chiqindilar miqdori byerib qo'yilishi kyerak.

2.2.5. Mahsulotni sotish ryejasini tuzish

Firma har xil maxsulotlar sotadi, jumladan bunda u ma'lum bir miqdordagi vositalarni (tyexnik, insoniy, pullik) ishlatadi.

Vositalarning umumiy zahirasi, ixtiyoriy mahsulotni sotishda ishlatiladigan har bir turdagi vositalar soni va uni sotishdan olingan foyda byerilgan. Firmaga maksimal foyda kyeltiradigan mahsulotlarni sotish ryejasini ishlab chiqish kyerak.

Matyematik modyelьni qurish.

1) Maqsad-maksimal foyda.

2) O'zgaruvchilar:

n -sotiladigan **h**ar xil mahsulotlar soni;

m - har xil vositalar soni;

b_i -i-turdagi vositalar zahirasi, $i=\overline{1,m}$

a_{ij} - j-turdagi mahsulotni sotish uchun ishlatiladigan i-turdagi vositalar soni, $i = \overline{1,m}$, $j = \overline{1,n}$;

P_j -j-turdagi birlik mahsulotni sotishdan olingan foyda, $j = \overline{1,n}$

3) Bosh o'zgaruvchilar x_j, $j = \overline{1,n}$ -j-turdagi ishlab chiqilgan mahsulot miqdori.

4) Mavjud yechimlar sohasini vositalar zahirasi bo'yicha chyeklanishlar hamda bosh o'zgaruvchilarning nomanfiylik sharti byelgilab byeradi.

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + ... + a_{1n}x_n \le b_1; \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + ... + a_{2n}x_n \le b_2; \\ \qquad\qquad .... \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + ... + a_{mn}x_n \le b_m; \; x_j \ge 0, \quad j = \overline{1,n} \end{cases}$$

5) Muqobillik myezoni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P = \sum_{j=1}^{n} p_j x_j \to \max$$

Bu yerda R-jami foyda.

CHiziqli matyematik modyelьni hisoblash natijasida firmaga masimal foyda kyeltiruvchi har bir turga mansub mahsulotning sotilish miqdori aniqlanadi.

2.3.CHiziqsiz dasturlash masalasining qo'yilishi

Umumiy holda chiziqsiz dasturlash masalasi qo'yilishi quyidagicha formulirovka qilinadi.

$$\begin{cases} g_i(x_1, x_2, ..., x_n) \le b_i \\ .... \\ g_i(x_1, x_2, ..., x_n) \le b_i \\ .... \\ g_i(x_1, x_2, ..., x_n) \le b_i \end{cases}$$

$$f(x_1, x_2, ..., x_n) \to \min(\max)$$

bu yerda x_j – boshqarish paramyetrlari yoki chiziqsiz dasiturlash masalasi yechimi, $j=1,2,…,n$;

b_i – fiksirlangan paramyetrlar, $i=1,2,…,m$;

f, g_i – n ta o'zgaruvchiga bog'liq byerilgan funkciyalar, $i=1,2,…,m$.

Agar f va g_i chiziqli bo'lsa, u hoda masala chiziqli dasturlash masalasiga aylanadi. CHiziqsiz dasturlash masalasiningng matyematik qo'yilishi shundan iboratki, shunday x_j – boshqarish paramyetrlari qiymatini topish kyerakki matyematik modyelda kyeltirilgan chyeklanishlar sistyemasi qanoatlantirilsin va maqsad funkciyasi maksimum yoki minimum qimymatga erishsin.

CHiziqsiz dasturlash masalasi masala chiziqli dasturlash masalasidan farqli tomoni shundaki uning uchun aniq bir yagona yechish usuli mavjud emas. Maqsad funkciyasi va chyegaralanishlar ko'rinishiga qarab bir nyecha maxsus yechish usullar ishlab chiqilgan. Ularga Lagranj ko'paytuvchisi usuli, kvadratik va qavariq dasturlash, gradiyent usullar, qator taqribiy usullar va grafik usullarni kyeltirish mumkin.

Mavzu bo'yicha savollar

1.Matyematik dasturlash matyematikaning qanday yo'nalishlaridan hisob-lanadi?

2.“Dasturlash” dyeganda nima tushuniladi?

3.CHiziqli va chiziqsiz funkciyaga ta'rif byering.
4.CHiziqli dasturlash masalasining matyematik modyelini tushuntirish byering.
5.CHiziqsiz dasturlash masalasining matyematik modyelini tushuntirish byering.
6.CHiziqli programalash masalasi qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
7.Qanday yechim mumkin bo'lgan yechim dyeyiladi?
8.Qanday yechim optimal yechim dyeyiladi?
9.CHiziqli dasturlash masalasining qanday xossalari bor?

3.CHIZIQLI DASTURLASH MASALALARINI YECHISH USULLARI

3.1.CHiziqli tyenglamalar tizimini yechish

Iqtisodiy masalalarni modyellashtirishda, jumladan ishlab chiqarishni ryejalashtirish va boshqarish masalasi, jihozlarni opritmal joylashtirishni aniqlash, ishlab chiqarishning optimal planini, yuklarni tashishning optimal planini, kadrlarni joylashtirish va boshqa shu kabi masalalarning matyematik modyeli chiziqli tyenglamalar tizo'imi ko'rinishida tasvirlanadi.

Quyidagi chiziqli tyenglamalar tizimi byerilgan bo'lmin.

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + ... + a_{1n}x_n = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + ... + a_{2n}x_n = b_2 \\ .... \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + ... + a_{mn}x_n = b_m \end{cases} \quad (1)$$

Bu tyenglamalar sistyemasi vyektor formada quyidagicha yoziladi

$$\mathbf{A \cdot X = B}. \quad (2)$$

A -tyenglama koefficiyentlari matricasi;

X -nomalumlar vyektori;

B -tyenglama ozod hadlari vyektori.

Oliy algyebra fanidan ma'lumki, agar n=m va A matricaning dityerminanti noldan farqli bo'lsa, ya'ni $|A|\neq 0$ shart bajarilsa tizim yagona yechimga ega bo'ladi.

Tyeskari matrica usuli.

Tyenlamalar tizimini tyeskari matricani topish yo'li bilan yechish usulini ko'rib chiqamiz. (2) vyektor tyenglamasini yechish uchun uning ikki tamoniga A^{-1} tyeskari matricani ko'paytiramiz va natijada quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\mathbf{A^{-1} \cdot A \cdot X = A^{-1} \cdot B}. \quad (3)$$

Matricani uning tyeskarisiga ko'paytirish qoidasiga ko'ra uning natijasi birlik matricaga ega. SHu sabab (3) tyenglamani quyidagicha yozamiz

$$\mathbf{X = A^{-1} \cdot B}. \quad (4)$$

Bu esa (1) tyenglamalar tizimining yechimidir. YEchimni topish uchun (4) tyenglamada oldin tyeskari matricani topish va kyeyin uni B vyektoriga ko'paytirish lozim. Bu jarayonni Excel jadval procyessorida MOBR (tyeskari matricani topish) va MUMNOJ (matricani maticaga yoki vyektorga ko'paytirish) funkciyasi yordamida juda oson amalga oshirish mumkin.

Matyematik modyeli chiziqli tyenglamalar tizimiga kyeluvchi masalani ko'rib chiqamiz.

Misol. Firma to'rtta A1,A2,A3,A4 turdagi mahsulot ishlab chiqarishda S1,S2,S3,S4 turdagi ryesurslarni ishlatadi. Ryesurslardan har bir mahsulot bir birligiga kyetadigan myeyor va bir kunda kyetadigan ryesurslar hajmi jadvalda byerilgan.

Mahs-ulot turi	Har bir mahsulotning bir birligi uchun kyetadigan myeyor				Bir kunda kyetadigan ryesurslar hajmi
	A1	A2	A3	A4	
S1	2	2	4	1	2250
S2	2	1	1	2	1550
S3	3	1	2	1	1850
S4	1	2	1	3	1700

Masalaning matyematik modyelini yozing va uni yechib bir kunda ishlab chiqiladigan mahsulotlar hajmini toping.

YEchish. Firma har kuni A1 mahsulotdan x_1, A2 mahsulotdan x_2, A3 mahsulotdan x_3 va A4 mahsulotdan x_4 hajmda ishlab chiqariladi. U holda masala quyidagi tyenglamalar sistyemasiga kyeladi.

$$\begin{cases} 2x_1 + 2x_2 + 4x_3 + 1x_4 = 2250 \\ 2x_1 + 1x_2 + 1x_3 + 2x_4 = 1550 \\ 3x_1 + 1x_2 + 2x_3 + 1x_4 = 1850 \\ 1x_1 + 2x_2 + 1x_3 + 3x_4 = 1700 \end{cases}$$

Bu tyenglamalar sistyemasini matrica formasida yozamiz

A·X=B.

Bu yerda

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 2 & 4 & 1 \\ 2 & 1 & 1 & 2 \\ 3 & 1 & 2 & 1 \\ 1 & 2 & 1 & 3 \end{pmatrix} \qquad X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 . \\ x_4 \end{pmatrix} \qquad B = \begin{pmatrix} 2250 \\ 1550 \\ 1850 \\ 1700 \end{pmatrix}$$

Bu masalani Excel elyektron jadval procyessorida yechish kyetma-kyetligi quyidagicha:

1.A matrica elyemyentlari elyektron jadvalga kiritiladi;

2.B vyektor elyemyentlari elyektron jadvalga kiritiladi;

3.A^{-1} tyeskari matrica topiladi:

3.1.A matrica elyemyentlari ajratiladi;

3.2.Ctrl tugmasini bosgan holda elyektron jadvaldan A^{-1} tyeskari matrica elyemyentlari chiqishi kyerak bo’lgan joylar ham ajratiladi;

3.3.”Vstavka funkcii (*fx*)” piktogrammasi bosiladi;

3.4.Muloqat oynasining katyegoriyalar bo’limidan matyematika, kyeyin darchadan MOBR funkciyasi tanlanib OK tugmasi bosiladi;

3.5.YAna A matrica elyemyentlari ajratilib massiv adryesi aniqlanadi va Ctrl+Shift+Enter tugmalari baravar bosilani. Natijada A^{-1} tyeskari matrica elyemyentlari hosil bo’ladi. Rasmda bu jarayon ko’rsatilgan.





4.Topilgan A^{-1} matrica B vyektorga ko'paytiriladi.

4.1.A^{-1} tyeskari matrica elyemyentlari ajratiladi;

4.2.Ctrl tugmasi bosilgan holda B vyektor elyemyentlari kyeyin hisoblanishi kyerak bo'lgan X vyektor elyemyentlari ajratiladi;

4.3."Vstavka funkcii (*fx*)" piktogrammasi bosiladi;

4.4.Muloqat oynasining katyegoriyalar bo'limidan matyematika, kyeyin darchadan MUMNOJ funkciyasi tanlanib OK tugmasi bosiladi;

4.5.Oldin A^{-1} matrica elyemyentlari ajratilib massiv adryesi aniqlanadi, kyeyin B vyektori elyemyentlari ajratilib massiv adryesi aniqlanadi va Ctrl+Shift+Enter tugmalari baravar bosiladi. Natijada X vyektorida hosil bo'ladi. Rasmda bu jarayon ko'rsatilgan.





	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N
1			A				B			A-1				X
2		2	2	4	1		2250		-0,33	-0,5	0,83	0,17		300
3		2	1	1	2		1550		-0,67	-3,5	2,17	1,83		200
4		3	1	2	1		1850		0,67	1,5	-1,17	-0,8		250
5		1	2	1	3		1700		0,33	2	-1,33	-0,7		250

Dyemak, firma tomonidan bir kunda ishlab chiqiladigan mahsulotlar hajmi mos ravishda A1 mahsulotdan 300, A2 mahsulotdan 200, A3 mahsulotdan 250 va A4 mahsulotdan 250 tyeng ekan.

Gauss usuli

Tizim matricasi A ozod hadlar ustuni bilan kyengaytirilsa, ya'ni n+1 ustun qilib ozod hadlar kiritilsa, uni

$$A_1X=0$$

ko'rinishida yozish mumkin. Bu yerda A_1 kyengaytirilgan matrica, uning elyemyentlari i=1,2,..,n; j=1,2,..,n uchun A matica elyemyentlariga, n+1 –ustuni ozod hadlarga tng qilib olingan, ya'ni $a_{ij}=a_{ij}$, j=1,2,..,n; $a_{in+1}=-b_i$, i=1,2,..,n.

YUqoridagi (1) tyenglamalar tiziminip yechish ikki bosqichda bajariladi.

Birinchi bosqich. Bu bosqich Gauss usulining to'g'ri yo'li dyeb atalib, bunda tyenglamalar tizimi matricasi A_1 uch burchakli holga kyeltiriladi, ya'ni

$$A_1=\begin{pmatrix} 1 & a_{12}^1 & a_{13}^1 & \dots & a_{1n-1}^1 & a_{1n}^1 & a_{1n+1}^1 \\ 0 & 1 & a_{23}^2 & \dots & a_{2n-1}^2 & a_{2n}^2 & a_{2n+1}^2 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & & 1 & a_{n-1n}^{n-1} & a_{n-1n+1}^{n-1} \\ 0 & 0 & 0 & & 0 & 1 & a_{nn+1}^{n} \end{pmatrix}$$

Bu matrica elyemyentlari k=1,2,..,n uchun kyetma-kyet

$$a_{kj}^k=\frac{a_{kj}^{k-1}}{a_{kk}^{k-1}};\;\; a_{ij}^k=a_{ij}^{k-1}-a_{kj}^{k-1}\cdot a_{ik}^{k-1};\;\; i=\overline{k+1,n};\;\; j=\overline{k+1,n+1}$$

Formulalar bilan hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich. Bu bosqichda no'malumlar kyetma-kyet quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$x_i = a_{in+1}^i - \sum_{j=i+1}^{n} a_{ij}^i x_j; \;\; i = \overline{n,1}$$

Jardan-Gauss usuli

Tyenlamalar sistyemasini yechishning Jardan-Gauss usulini ko'rib chiqamiz. Jardan-Gauss usuli chiziqli tyenglamalar sistyemasini yechish uchun zarurat tug'ulganda A^{-1} tyeskari matricani topish uchun eng qulay usullardan biridir. Bu usul mohiyati quyidagidan iborat: Sistyemadagi birinchi tyenglamadan ixtiyoriy 0 dan farqli koefficiyentli nomalum tanlanadi va birinchi tyenglamaning hamma hadlari shu koefficiyentga bo'linadi. Birinchi tyenglama yordamida tanlangan noma'lum boshqa hamma tyenlamalardan yo'qotiladi. Ikkinchi tyenglamadan ixtiyoriy 0 dan farqli koefficiyentli nomalum tanlanadi va ikkinchi tyenglamaning hamma hadlari shu koefficiyentga bo'lib chiqiladi. Bu tyenglama yordamida tanlangan noma'lum qolgan hamma tyenlamalardan yo'qotiladi va hokazo.

Tizimni yechish jarayonida quyidagi hollar yuz byerishi mumkin:

- birorta tyenglamaning chap tomoni 0 ga aylanib, o'ng tomoni 0 dan farqli bo'lib qolshi mukin. Bu holda tizim yechimga ega bo'lmaydi.
- birorta tyenglamaning chap tomoni va o'ng tomoni ham 0 ga aylanib, qolshi mukin. Bu tyenglamani noma'lumlarning ixtiyoriy son qiymatlari qanoatlantirganligi sabab uni tashlab yuborish mumkin.
- har bir tyenglamadan bittadan noma'lum topilgandan so'ng tizim yechimi hosil bo'ladi.

Misol.

$$\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 = 2, \\ -2x_1 + x_2 + x_3 = 3, \\ x_1 + x_2 + x_3 = 6. \end{cases}$$

1)Birinchi tyenglamadagi x_1 ni boshqa tyenglamalardan yo'qotish uchun 1-tyenglamani 2 ga ko'paytirib 2-tyenglamaga, (-1)ga ko'paytirib, 3-tyenglamaga qo'shamiz. Natijada quyidagi tizim hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 = 2, \\ 3x_2 - x_3 = 7, \\ 2x_3 = 4. \end{cases}$$

2)Ikkinchi tyenglamadan x_2 ni tanlab, bu tyenglamani x_2 oldidagi koefficiyent 3ga bo'lamiz. Bu yerda koefficiyent 3 ni *aniqlovchi koefficiyent* dyeb ataymiz. Xosil bo'lgan tyenglamani (-1)ga ko'paytirib birinchi tyenglamaga qo'shamiz. Natijada quyidagi sistyemani xosil qilamiz:

$$\begin{cases} x_1 - \frac{2}{3}x_3 = -\frac{1}{3}, \\ x_2 - \frac{1}{3}x_3 = \frac{7}{3}, \\ 2x_3 = 4. \end{cases}$$

3)Bu sistyemadan 3- tyenglamani x_3 oldidagi koefficiyent 2 ga bo’lamiz. Xosil bo’lgan tyenglamani $\frac{2}{3}$ ga ko’paytirib 1-tyenglamaga va $\frac{1}{3}$ ga ko’paytirib, 2-tyenglamaga qo’shamiz.

$$\begin{cases} x_1 \qquad\quad = 1, \\ \quad x_2 \quad = 3, \\ \qquad x_3 = 2. \end{cases}$$

Jordan – Gauss usuli bo’yicha qilgan hamma ishlarimiz natijasida

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ -2 & 1 & 1 \\ 1 & 1 & 1 \end{pmatrix}$$

matricani

$$I = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}$$

birlik matricaga aylantirdik. Bundan bajargan hamma algyebraik almashtirishlarimiz byerilgan A matricani A^{-1} matricaga ko’paytirishga ekvivalyent ekanligi ko’rinadi.

3.2.CHiziqli dasturlash masalasini yechishning grafik usuli

CHiziqli dasturlash masalasini grafik usulda yechish uni gyeomyetrik tasvirlashga asoslangan. Ikki o’lchovli fazoda (tyekislikda) byerilgan chiziqli dasturlash masalasini yechish uchun grafik usulni qo’llash mumkin. N>2 o’lchovli fazoda byerilgan masalani grafik usul bilan yechish noqulay, chunki bu holda, yechimlardan tashkil topgan qavariq ko’pburchakni yasash qiyinlashadi.

n=2 bo’lganda tyengsizliklar sistyemasidan quyidagi sistyemani hosil qilamiz:

$$\sum_{j=1}^{2} a_{ij}x_j \le b_i, \ \ i = \overline{1,m}; \quad x_1 \ge 0, \ x_2 \ge 0.$$

Bu tyengsizliklarning har biri $a_{i1}x_1+a_{i2}x_2=b_i$ to’gri chiziq bilan, yechimlarning manfiy bo’lmaslik shartlari $x_j \ge 0$ $j=1;2$ esa $x_j=0$ to’g’ri chiziq bilan chyegaralangan yarim tyekisliklar bo’ladi. Tyengsizliklar sistyemasi birgalikda bo’lganligi uchun hyech bo’lmaganda bitta yechimga ega bo’ladi, ya’ni chyegaraviy to’g’ri chiziqlar bir-biri bilan kyesishib, mumkin bo’lgan (o’rinli) yechimlar to'plamini hosil qiladi. Dyemak, n=2 bo'lganda mumkin bo'lgan yechimlar to'plami ko'pburchakning nuqtalaridan iborat bo'ladi.



Rasm 1



Rasm 2



Rasm 3



Rasm 4

Mumkin bo'lgan yechimlar sohasi (to'plami) qavariq ko'pburchak (1-rasm), ko'pburchakli qavariq soha (2-rasm), yagona nuqta (3-rasm) va bo'sh to'plam (4-rasm) bo'lishi mumkin.

CHiziqli dasturlash masalasini ikki o'zgaruvchi uchun quyidagicha yozamiz.

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 \le b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 \le b_2 \\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 \le b_m \end{cases}$$

$$x_j \ge 0 \qquad (i = \overline{1,m})$$

$$Z = c_1x_1 + c_2x_2 \to \max(\min)$$

Tyengsizliklarning har biri chiziqlar bilan chyegaralangan yarim tyekisliklarni ifodalaydi. CHiziqli funkciya ham ma'lum bir o'zgarmas qiymatda to'g'ri chiziqni ifodalaydi $c_1x_1+c_2x_2=const$.

Faraz qilaylik, mumkin bo'lgan yechimlar qavariq ko'pburchakdan tashkil topgan bo'lsin. YEchimlardan tashkil topgan qavariq to'plamni hosil qilish uchun to'g'ri chiziqlar bilan chyegaralangan ko'pburchakni yasaymiz. Bu ko'pburchak ABCDEF bo'lsin (5-rasm). Maqsad funkciyasi X_1OX_2 tyekislikda parallyel to'g'ri chiziqlarni byeradi. CHiziqli funkciyani ixtiyoriy o'zgarmas c_0 songa tyen dyeb olaylik. Unda

$$c_1x_1+c_2x_2=const= c_0$$

to'g'ri chiziq hosil bo'ladi. Unga pyerpyendikulyar bo'lgan $N(c_1,c_2)$ vyektor z-funkciyaning o'sish yo'nalishini byelgilaydi (5-rasm).

Agar yechimlardan tashkil topgan qavariq ko'pburchak chyegaralanmagan bo'lsa ikki hol bo'lishi mumkin:

1-hol. $c_1x_1+c_2x_2=const$ to'g'ri chiziq $N(c_1,c_2)$ vyektor vyektor bo'yicha yoki unga qarama-qarshi yo'nalishda siljib borib har vaqt qavariq ko'pburchakni kyesib o'tadi. Ammo na minumum yoki maksimum qiymatga erishmaydi. Bu holda chiziqli funkciya quyidan va yuqoridan chyegaralanmagan bo'ladi (6-rasm).



Rasm 5



Rasm 6

2-hol. $c_1x_1+c_2x_2=const$ to'g'ri chiziq $N(c_1,c_2)$ vyektor bo'yicha siljib borib qavariq ko'pburchakning birorta chyetki nuqtasida minumum yoki maksimum qiymatga erishadi. Bunday holda chiziqli funkciya yuqoridan chyegaralangan, quyidan esa chyegaralanmagan (rasm 7) yoki quyidan chyegaralangan yuqoridan esa chyegaralanmagan bo'lishi mumkin (rasm 8). Ba'zi chiziqli funkciya yuqoridan ham, quyidan ham esa chyegaralangan bo'lishi mumkin (rasm 9).







Rasm 7 Rasm 8 Rasm 9

CHiziqli programalash masalasini grafik usulda yechish quyidagi kyetma-kyetlikda bajariladi:

1.Tyenglamalar yoki tyengsizliklar sistyemasining grafiklari quriladi .

2.Har bir tyengsizlikning tyekislikdagi aniqlanish tomonlari (sohasi) byelgilanadi.

3.Mumkin bo'lgan yechimlar sohasi ajratiladi .

4.N=(c_1,c_2) vyektori quriladi va unga (0,0) nuqtada pyerpyendikulyar o'tkaziladi.

5.Ko'pburchakdan pyerpyendikulyarga parallyel chiziqni vyektor yo'nalishi bo'yicha paralyel siljitilib ekstryemal nuqta topiladi. Agar Z funkciyaning minimal qiymatiga mos nuqtani topish kyerak bo'lsa, u holda bu nuqta p vyektorga pyerpyendikulyarning shu vyektor yo'nalishi bo'yicha siljitganda mumkin bo'lgan nuqtalar sohasining birinchi nuqtasiga mos kyeladi. Maksimum qiymat byeruvchi nuqta esa eng oxirgi nuqta bo'ladi. Agar vyektor qiymati (manfiy ishora) -N bo'lsa yuqoridagi holning tyeskarisi bo'ladi.

6.Optimal nuqta kordinatasi topiladi va Z funkciya qiymati hisoblanadi.

Misol. Quyidagi chiziqli dasturlash masalasini grafik usulda yeching.

$$\begin{cases} 4x_1 + 3x_2 \le 12 \quad (L_1) \\ 3x_1 + 4x_2 \le 12 \quad (L_2) \end{cases}$$

$$x_1 \ge 0, \quad x_2 \ge 0,$$

$$Z = 2x_1 - 5x_2 \to \max$$



Rasm 10.

Byerilgan tyengsizliklarning grafiklarini X_1OX_2 tyekislikda quramiz va mumkin bo'lgan yechimlar soxasini aniqlaymiz (rasm 10). Soha grafigida shtrixlangan joyni aniqlaydi. CHunki bu joy hamma tyengsizliklarni qanoatlantiruvchi sohadir. Mumkin bo'lgan yechimlar soxasidan optimal yechimni aniqlaymiz. Aniqlash uchun (0,0) nuqtadan o'tuvchi N=(2,-5) vyektorini yasaymiz va uning yo'nalishini aniqlaymiz. (0,0) nuqtada bu vyektorga N pyerpindikulyarini o'tkazamiz va uni vyektor yo'nalishi bo'yicha siljitamiz. Soha bilan pyerpindikulyarning oxirgi kyesishish nuqtasi A nuqta bo'ladi. Bu nuqta Z funkciyasiga maksimal qiymat byeruvchi nuqtadir. Bu nuqta (3,0) bo'lib uning koordinatasi x_1=3, x_2=0 masalaning yechimi bo'ladi. Grafikdan ko'rinib turibdiki z funkciyaga minumum qiymat byeruvchi nuqta esa (0,3).

Amaliy mashg'ulot uchun misollar

1.Quyidagi chiziqli programmalash masalasini grafik usulda yeching;

1. $x_1+2x_2 \le 4$
   $2x_1+x_2 \le 4$
   $x_1 \ge 0;\ x_2 \ge 0$

2. $3x_1+x_2 \ge 6$
